

MA'NAVIYAT VA UNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI

Xo'janazarova Mohinur Shuhratbek qizi

IV Andijon akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada ma'naviyat va uning yoshlar hayotidagi ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, Mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal etishda ta'lim, ma'naviyatni tarbiyalash va rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor berilayotganiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, marifat, yoshlar, ta'lim, jarayon, tafakkur.*

SPIRITUALITY AND ITS PLACE IN THE LIFE OF YOUNG PEOPLE

Annotation: *this article analyzes spirituality and its importance in the life of young people, due to the fact that special attention is paid to the problems of education, upbringing and development of spirituality in solving the socio-political and cultural-educational tasks facing our country. will be processed.*

Key words: *spirituality, enlightenment, youth, education, process, thinking.*

ДУХОВНОСТЬ И ЕЕ МЕСТО В ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *в данной статье анализируется духовность и ее значение в жизни молодежи, в связи с тем, что особое внимание уделяется проблемам образования, воспитания и развития духовности при решении общественно-политических и культурно-просветительских задач, стоящих перед нашей страной. . будет обработано.*

Ключевые слова: *духовность, просвещение, молодежь, образование, процесс, мышление.*

Biz ma'naviyat va u bilan bog'liq tushunchalar haqida gapirganimizda, faqat insonga xos yuksak tuyg'ular, hislar, ko'nikmalar, hayotiy tajribalardan kelib chiqqan hollarda gapirishimiz va ular orqali amaliyotga sinashimiz mumkin. Albatta, ma'naviyatning axloqiy mezonlari inson tarbiyasi va madaniyatida alohida o'rin tutib, shaxs va jamiyat ma'naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllaridir.

Masalan, urf-odatlar, an'analar, vatanni sevish, o'z xalqi va millatni hurmat qilish, otanasini e'zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash, o'z ishiga ma'suliyatli bo'lish, o'z vatanini taqdiriga daxldorlik hissi kabi yuksak ma'naviy fazilatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Ma'naviyatning axloqiy negizlari muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma'noda milliy muhit ularning yanada rivojlanishiga ko'mak beradi, jamiyat a'zolari bundan o'zlariga kerakli sifatlarni oladi. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga

yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni yorqin namoyon etadi. Ma'naviyatning axloqiy mezonlari axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda ma'naviyatning axloqiy fazilatlarini ma'naviyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviyat – inson, axloq, jamiyat va davlatning intellektual salohiyati, ma'rifiy kuch-qudratidir. Buni quyidagilar mezonlar orqali o'rgansak bo'ladi:

- jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro a'loqalarni tartibga soluvchi talab va qoidalar majmui;
- xalq va jamiyat hayoti bilan a'loqador ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, ezgu g'oya va maqsadlar tizimi;
- axloq, madaniyat, ma'rifat, din va ta'lim tarbiya tizimidan iborat yaxlit ma'naviy hodisalar majmui;
- ma'naviy jarayonlar, insonning o'zini va o'zi yashayotgan dunyoni takomillashtiruvchi ijodiy faoliyati [1].

Yoshlarda ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e'tiborni qaratib, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush yili nomlari bilan atalgan Davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi, xalqimizning yorqin kelajagi to'g'risidagi ezgu niyatlari ifodasidir. Dasturlar avvalo jismonan va ma'nan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi.

Ma'lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo xayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro yohamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi- bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda.

Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta'minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor, mehr, g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotganligi e'tiborga molik. Mehribonlik uylari, maktab internatlarining va maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o'rni buyuk.

Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko'rish mumkin. Yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e'tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha milliy konsepsiyalar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib borilayotganining guvohi bo'lamiz. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ham, yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi... Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choratadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.